

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda






Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **49,1** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **4 989** taga ko'paygan yoki **11,3 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **16,4** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2022- yilning yanvar - dekabrda **6799** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,8 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **49 145** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 799** tani tashkil etdi.


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tmanida **5 535** tani yoki jamiga nisbatan **11,3 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **16,4** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan **1,9** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumani **33,1** birlik, Ohangaron shahrida **30,5** birlik, Nurafshon shahrida **26,0** birlik, Qibray tumanida **25,2** birlik, O'rta Chirchiq tumanida **19,6** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*

Zangiota t.	33,1
Ohangaron sh.	30,5
Nurafshon sh.	26,0
Qibray t.	25,2
O'rta Chirchiq t.	19,6
Yangiyo'1 sh.	19,1
Yuqori Chirchiq t.	19,0
Toshkent t.	18,7
Chirchiq sh.	16,6
Angren sh.	15,1
Bekobod sh.	15,0
Olmaliq sh.	14,9
Parkent t.	13,7
Yangiyo'1 t.	13,6
Bo'stonliq t.	13,5
Quyichirchiq t.	13,3
Oqqo'rg'on t.	12,2
Piskent t.	12,2
Ohangaron t.	12,1
Bo'ka t.	10,7
Chinoz t.	9,8
Bekobod t.	8,5

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Zangiota tumani
– 33,1 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

Chirchiq shahri
– 16,6 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

Bekabod tumani
– 8,5 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida **33,1** birlik, Ohangaron shahrida **30,5** birlik, Nurafshon shahrida **26,0** birlik, Qibray tumanida **25,2** birlik, O'rtachirchiq tumanida **19,6** birlik, Yangiyo'l shahrida **19,1** birlik, Yuqorichirchiq tumanida **19,0** birlik, Toshkent tumanida **18,7** birlik, Chirchiq shahrida **16,6** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Zangiota
tumani
33,1

Ohangaron
shahar
30,5

Nurafshon
tumani
26,0

Qibray
tumani
25,2

O'rta Chirchiq
tumani
19,6

Yangiyo'l
shahar
19,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2021- y.

2022- y.

263	Nurafshon sh.	250
382	Olmaliq sh.	270
397	Angren sh.	314
238	Bekobod sh.	201
225	Ohangaron sh.	272
432	Chirchiq sh.	435
256	Yangiyo'l sh.	228
236	Oqqo'rg'on t.	257
219	Ohangaron t.	182
291	Bekobod t.	265
398	Bo'stonliq t.	323
266	Bo'ka t.	229
222	Quyi Chirchiq t.	188
760	Zangiota t.	703
368	Yuqori Chirchiq t.	308
709	Qibray t.	477
373	Parkent t.	347
178	Piskent t.	193
465	O'rta Chirchiq t.	340
212	Chinoz t.	199
362	Yangiyo'l t.	340
547	Toshkent t.	478

■ 2021- y.

■ 2022- y.

2022- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Nurafshon sh.	3,7
Olmaliq sh.	4,0
Angren sh.	4,6
Bekobod sh.	3,0
Ohangaron sh.	4,0
Chirchiq sh.	6,4
Yangiyo'l sh.	3,4
Oqqo'rg'on t.	3,8
Ohangaron t.	2,7
Bekobod t.	3,9
Bo'stonliq t.	4,8
Bo'ka t.	3,4
Quyichirchiq t.	2,8
Zangiota t.	10,3
Yuqorichirchiq t.	4,5
Qibray t.	7,0
Parkent t.	5,1
Piskent t.	2,8
O'rtachirchiq t.	5,0
Chinoz t.	2,9
Yangiyo'l t.	5,0
Toshkent t.	7,0


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – **10,3 %**, Toshkent tumani – **7,0 %**, Qibray tumani – **7,0 %**, Chirchiq shahri – **6,4 %**, Parkent tumani – **5,1 %**, O'rta Chirchiq tumani – **5,0 %**, Yangiyo'l tumani – **5,0 %**, hissaloriga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2022 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **2 434** ta, sanoatda **1 316** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **866** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota tumanida **703** ta, Toshkent tumanida **478** ta hamda Qibray tumanida **477** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **37 680** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida -**13 140** ta (yoki **34,9 %**), xizmatlar sohasida -**8 668** ta (yoki **23,0 %**), sanoat sohasida - **7 736** ta (yoki **20,5 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -**5 116** ta (yoki **13,6 %**) va qurilish sohasida - **3 020** ta (yoki **8,0 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	564	17,6
Sabzavotlar yetishtirish	365	11,4
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	288	9,0
Yirik shoxli qoramollarning boshqa zotlarini va buyvollarni ko‘paytirish	258	8,0
Parrandachilik	184	5,7
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	445	10,2
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	291	6,6
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	236	5,4
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	158	3,6
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	148	3,4
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	405	26,2
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	386	24,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	292	18,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	101	6,5
Elektrotexnik va montaj ishlari	76	4,9
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	2716	32,4
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	1405	16,7
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	1036	12,3
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	367	4,4
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	306	3,6
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	923	17,1
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	671	12,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	419	7,7
Avtomobil transportida yuk tashish	351	6,5
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	176	3,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **2716 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **32,4 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va ustki kiyimlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2022- yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **46,5** %ni tashkil qilib, 2021- yilga nisbatan **0,9** punktga ko'paygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,8** %ni, yo'lovchi tashishda **94,1**%ni, qishloq xo'jaligida **86,9** %ni, savdoda **76,1** %ni, qurilishda **75,0** %ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Nurafshon sh.	427,0
Olmaliq sh.	693,2
Angren sh.	1034,3
Bekobod sh.	219,2
Ohangaron sh.	1364,3
Chirchiq sh.	2288,8
Yangiyo'l sh.	376,3
Oqqo'rg'on t.	184,8
Ohangaron t.	586,7
Bekobod t.	135,2
Bo'stonliq t.	470,6
Bo'ka t.	114,0
Quyichirchiq t.	700,8
Zangiota t.	2673,0
Yuqori Chirchiq t.	1679,1
Qibray t.	1306,4
Parkent t.	394,2
Piskent t.	142,9
O'rta Chirchiq t.	530,8
Chinoz t.	354,7
Yangiyo'l t.	711,5
Toshkent t.	2161,6

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **18 549,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Zangiota tumani (**2 673,0** mlrd. so'm), Chirchiq shahri (**2 288,8** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**2 161,6** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**1 679,1** mlrd. so'm) va Ohangaron (**1364,3** mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ka tumanida (**114,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


Zangiota t.	14,4
Chirchiq sh.	12,3
Toshkent t.	11,7
Yuqori Chirchiq t.	9,1
Ohangaron sh.	7,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **19,9 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Toshkent tumani (**90,6 %**), Parkent tumani (**86,6 %**), Zangiota tumani (**86,1 %**), Quyi Chirchiq tumani (**73,1 %**), Yuqori Chirchiq tumani (**64,3 %**), Yangiyo'l shahri (**49,9 %**), O'rta Chirchiq tumani (**46,2 %**), Chinoz tumani (**45,0 %**), Bekobod tumani (**42,6 %**) va Yangiyo'l (**38,8 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **9 111,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **75,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,7 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota tumani (**963,0** mlrd. so'm), Qibray tumani (**924,3** mlrd. so'm), Yuqorichirchiq tumani (**690,0** mlrd. so'm), Quyichirchiq tumani (**651,4** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**633,9** mlrd. so'm), Nurafshon shahri (**604,1** mlrd. so'm) hamda Chirchiq (**522,5** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **13 308,9** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **38,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **107,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Ohangaron tumani (**1558,4** mlrd. so'm), Quyi Chirchiq tumani (**1357,0** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1187,5** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**1187,0** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**902,2** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**718,9** mlrd. so'm) hamda Angren (**702,3** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **30568,4** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **86,9** % ini tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2021- yilga nisbatan **102,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Bekobod tumani (**2891,9** mlrd. so‘m), Bo‘stonliq tumani (**2573,0** mlrd. so‘m), Parkent tumani (**2264,3** mlrd. so‘m), Zangiota tumani (**2256,3** mlrd. so‘m), Oqqo‘rg‘on tumani (**2250,2** mlrd. so‘m) hamda Yuqori Chirchiq (**1982,9** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **24 098,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **76,1 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **106,5 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Zangiota t.	4 178,9
Olmaliq sh.	1 909,8
Qibray t.	1 811,4
Yangiyo'l sh.	1 629,6
Angren sh.	1 314,1
Bo'stonliq t.	1 303,5
Chirchiq sh.	1 135,4
Bekobod sh.	1 081,2
Oqqo'rg'on t.	1 033,6
Toshkent t.	959,9
Parkent t.	948,0
Yangiyo'l t.	888,3
Yuqorichirchiq t.	885,8
Bo'ka t.	880,4
Chinoz t.	817,9
Ohangaron sh.	574,8
Nurafshon sh.	551,6
Piskent t.	547,4
Bekobod t.	532,8
Quyichirchiq t.	458,1
O'rtachirchiq t.	364,8
Ohangaron t.	290,8

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (**4 178,9** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**1 909,8** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1 811,4** mlrd. so'm), Yangiyo'l shahri (**1 629,6** mlrd. so'm), Angren shahri (**1 314,1** mlrd. so'm) va Bo'stonliq (**1 303,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda

Zangiota t.	1527,6
Chirchiq sh.	1458,7
Olmaliq sh.	1301,9
Qibray t.	1250,4
Toshkent t.	1174,0
Angren sh.	1098,5
Bo'stonliq t.	964,7
Yangiyo'l sh.	962,0
Yangiyo'l t.	956,1
Bekobod sh.	949,4
Yuqori Chirchiq t.	827,4
Parkent t.	800,2
O'rta Chirchiq t.	651,8
Bekobod t.	599,9
Bo'ka t.	597,6
Oqqo'rg'on t.	570,4
Chinoz t.	501,0
Ohangaron sh.	392,4
Quyichirchiq t.	345,1
Nurafshon sh.	328,1
Ohangaron t.	296,3
Piskent t.	291,9


2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **17 845,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **68,6** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Zangiota tumani (**1527,6** mlrd. so'm), Chirchiq shahri (**1458,7** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**1301,9** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1250,4** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**1174,0** mlrd. so'm), Angren shahri (**1098,5** mlrd. so'm) va Bo'stonliq (**964,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dol.


Ulushi, %da



2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **616,9** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **30,1 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Ohangaron tumani – **99,6 %**, Quyi Chirchiq tumani – **98,9 %**, Qibray tumani – **95,7 %**, Yangiyo'l shahri – **95,5 %**, Bekobod tumani – **94,0 %**, O'rta Chirchiq tumani – **93,5 %**, Parkent tumani **90,0 %** va Toshkent tumani – **86,0 %**, eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida – **2,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **1 734,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **48,4 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Quyi Chirchiq tumani – **98,6 %**, Yangiyo'l shahri – **91,2 %**, Chinoz tumani – **91,0 %**, Zangiota tumani – **90,9 %**, Nurafshon shahri – **90,8 %**, Toshkent tumani – **89,6 %** ni tashkil etdi.


Quyi Chirchiq t.	98,6
Yangiyo'l sh.	91,2
Chinoz t.	91,0
Zangiota t.	90,9
Nurafshon sh.	90,8
Toshkent t.	89,6
Oqqo'rg'on t.	88,3
Yuqori Chirchiq t.	87,9
O'rta Chirchiq t.	87,8
Parkent t.	81,4
Bekobod t.	74,0
Bo'ka t.	70,9
Chirchiq sh.	63,1
Qibray t.	60,0
Ohangaron sh.	47,5
Yangiyo'l t.	37,3
Angren sh.	36,2
Bo'stonliq t.	26,5
Piskent t.	19,0
Ohangaron t.	17,5
Olmaliq sh.	5,4
Bekobod sh.	1,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **24,1 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **117,4 %** ni tashkil qildi.



Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **56,1 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **105,0 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,1 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,3 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,8 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2022- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 895** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **7 369 (38,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **10 302 (54,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **1 381 (7,2%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,2 % (7 278 ta)**, xizmatlar sohasida – **30,2 % (5 754 ta)**, sanoatda – **16,9 % (3 217 ta)**, qurilishda – **8,7 % (1 656 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,0 % (1 147 ta)** ni tashkil etdi.

2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (3903 ta), Samarqand (1 836 ta), Toshkent (1 798 ta), Farg'ona (1 628 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **40,9** %ni, xizmatlar sohasida – **37,8** % ni, sanoatda – **37,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **55,2** % ni, xizmatlar sohasida – **55,1** % ni, qurilishda – **54,9** % ni, sanoatda – **53,7** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **9,5** % ni, sanoatda – **9,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,5** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **46,7 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **46,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **44,4 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilishda – **50,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **49,8 %** ni, sanoatda – **49,5 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda – **6,5 %** ni, qurilishda – **6,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **5,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	45,8	43,6	10,7
Band bo'lganlar soni	25,1	68,0	7,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	39,1	55,2	5,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,1	62,8	7,1
Raqobat muhiti	41,1	54,2	4,7

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,3	45,8	4,9
Band bo'lganlar soni	28,7	67,5	3,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,3	57,6	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,9	62,1	5,0
Raqobat muhiti	41,9	54,4	3,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli